Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320949

ta´minlashning ustivor yo´nalishlari´ mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

йўналишини белгилаб беради ва жамиятнинг ижтимоий тузилишини тартибга солиш усулидир.

Солиқ имтиёзларининг бугунги кунда қуйидаги турлари жаҳон амалиётида кенг қўлланиб келинмоқда:

9. олиб қўйиш;
10. чегирма;
11. солиқ ставкасини пасайтириш
12. солиқдан озод қилиш
13. солиқ тўловининг муддатини ўзгартириш;
14. солиқлар ва жарималар бўйича қарзларни қайта тузиш.

Олиб қўйиш - бунда солиқ тўловчидан маълум қисмини солиқ солинадиган базадан чиқариб юбориш ҳуқуқини берувчи солиқ имтиёзи. Чегирма солиқ тўловчига солиққа тортиладиган базани маълум миқдорда камайтириш ҳуқуқини беради. Солиқ ставкасини пасайтириш – солиқ ставкасини имтиёз сифатида камайтириш умумий тартибда белгиланган таърифлардан пастроқ ставкалар бўйича солиқ ва тўловларни тўлашга имкон беради. Умуман, солиқлар ва жарималар бўйича қарзларни қайта тузиш-солиқ тўловчиларга солиқ ва бож тўловлари тўғрисидаги қонун ҳужжатларини бўзганлик учун қарздорлик, жарималар ва бошқа тўловларни тўлаш мажбуриятини бажариш муддатини узайтириш имконини беради.

Юқоридагиларнинг барчаси солиқ имтиёзларини муҳим иқтисодий дастак эканлигининг исботидир.

Адабиётлар руйхати

1.Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев мамлакатимиз парламенти - Олий Мажлисига тақдим этган Мурожаатномаси. Халқ сўзи газетаси 2018 йил 29 декабрь, № 271-272 (7229-7230) 3-бет.

2.Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси. 2019 й

3.Александров И.М. Налоги и налогообложение: Учебник.–7-е. изд., перераб. И доп..- Издательско-торговая корпорация “Дашков и Ко”. 2007 г. – 314 с.;

4.Аронов А.В., Кашин В.А. Налоги и налогообложение: Учебное пособие– М.: Магистр. 2007 – 52 с.;

5.Яҳёев К. Солиққа тортиш назарияси ва амалиёти. Т.: “Меҳнат”. 1997. 20-бет.

6.Гатаулин Ш. Солиқлар ва солиққа тортиш. Т.: 1996. 74-бет.

7.Завалишина И.А. Солиқлар: назария ва амалиёт. Ўқув қўлланма. Т.: “Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси” нашриёт уйи. 2005-14 б.

8.Юлдашев О.Т. Ўзбекистон республикасида солиқ имтиёзларини такомиллаштириш йўналишлари и.ф.н. диссертацияси, Т.: 2011 й. 22 бет

9.Курбанов З., Акрамов Ф. “Солиқ имтиёзларининг молиявий ҳисобини такомиллаштириш масалалари” Бизнес-эксперт илмий журнали №9 2015

O‘ZBEKISTONDA SOLIQ SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTIVOR YO‘NALISHLARI

Saydakbarova Madinaxon Anisbekovna
TDIU Andijon fakulteti, “Mutaxasislik, ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Egamnazarov Murodali Alinazar o‘g‘li

Published: 23.12.2024

Cite this article: Saydakbarova Madinaxon Anisbekovna, Egamnazarov Murodali Alinazar o‘g‘li (2024). O‘zbekistonda soliq siyosatini takomillashtirishning ustivor yo‘nalishlari. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320949

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

TDIU Andijon fakulteti “Moliya va moliyaviy texnologiyalar” yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning investisiyaviy jozibadorligini yaxshilashda soliq siyosatini ustivor yo‘nalishlari bayon etilgan. Shu bilan birga, mazkur sohada bir maromda iqtisodiy o‘sishga, ishbilarmonlik va investisiyaviy faollikni oshirishga, sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishga, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar yig‘iluvchanligining zarur darajasini ta’minlashga to‘sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolar ochib berilgan hamda zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga soliq qonunchiligini soddalashtirish yuzasidan aniq tavsiya va xulosalar ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: soliqlar, soliq siyosati, soliq kodeksi, investisiya, majburiy to‘lovlar, axborot-kommunikasiya, imtyozlar, erkinlashtirish, soddalashtirish.

Soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning investisiyaviy jozibadorligini yaxshilash - soliq siyosatini takomillashtirishning ustivor yo‘nalishlari hisoblanadi.

Shu bilan birga, mazkur sohada bir maromda iqtisodiy o‘sishga, ishbilarmonlik va investisiyaviy faollikni oshirishga, sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishga, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar yig‘iluvchanligining zarur darajasini ta’minlashga to‘sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolarni ko‘rsatdi, xususan:

-birinchidan, umumbelgilangan soliqlarni to‘lovchilar uchun soliq yuki darajasining yuqoriligi, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimida soliqlarni to‘laydigan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘rtasidagi soliq yuki darajasidagi farqning sezilarliligi;

-ikkinchidan, qo‘shilgan qiymat solig‘ini undirishning samarasiz tizimi, soliq to‘lovchilarning aylanma mablag‘larini jalb qiladigan, shuningdek, iste’mol mahsulotining oraliq va yakuniy qiymati qimmatlashishiga olib keladigan hamda yirik va kichik biznes o‘rtasidagi kooperasiyaning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladigan majburiy to‘lovlarning mavjudligi;

-uchinchidan, soliq to‘lovchilar tomonidan xodimlarning Real sonini va mehnatga haq to‘lash fondini yashirishga olib keluvchi mehnatga haq to‘lash fondi soliq stavkalarining yuqoriligi;

-to‘rtinchidan, imtiyozlarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish bo‘yicha ta’sirchan tizimning mavjud emasligi sababli sog‘lom raqobatni ta’minlashga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni soliq va bojxona, shu jumladan individual xususiyatga ega bo‘lgan imtiyozlar hisobiga qo‘llab-quvvatlash amaliyotining keng tarqalganligi;

-beshinchidan, davlat organlari va tashkilotlari o‘rtasida axborot almashish mexanizmlarining, elektron soliq ma’muriyatchiligi hamda soliq nazoratini amalga oshirish shakl va uslublarining takomillashmaganligi;

-oltinchidan, o‘tkaziladigan nazorat tadbirlarining sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi va insofli tadbirkorlik sub’ektlarining faoliyatiga aralashishlarni kamaytirishga to‘sqinlik qiluvchi nazorat faoliyatini amalga oshirishda xavf-xatarlarni tahlil qilish va boshqarishning aniq tizimi yo‘qligi;

-yettinchidan, mahalliy soliq va yig‘imlarning ma’muriyatchiligi mexanizmlarining samarasizligi oqibatida ularning yig‘iluvchanlik darajasi etarli

emasligi, shuningdek, ko‘chmas mulk va er uchastkalarini to‘liq hisobga olish va qiymatini ob’ektiv aniqlashning mavjud emasligi.

Mavjud tizimli muammolarni bartaraf etish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi 2017 yil 07-fevral PF-4947-sonli va "2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi 2022 yil 28-yanvar PF-60-sonli Farmonilari asosida belgilangan soliq yukini kamaytirish va soliq solish tizimini soddalashtirish, soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish vazifalarini amalga oshirish maqsadida, shuningdek, keng jamoatchilik muhokamasi natijalari hamda xalqaro valyuta jamg‘armasi, Jahon banki va xalqaro ekspertlarning tavsiyalaridan kelib chiqib quyidagilar O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish asosiy yo‘nalishlari etib belgilandi;

-iqtisodiyotga soliq yukining darajasini kamaytirish, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimi bo‘yicha soliqlarni to‘laydigan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘rtasidagi soliq yuki darajasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish;

soliqlarni unifikasiya qilish orqali ularning sonini optimallashtirish, shuningdek, o‘xshash soliq solish bazasiga ega bo‘lgan soliqlarni birlashtirish, soliq hisobotlarini qisqartirish va soddalashtirish, operasion xarajatlarni minimallashtirish;

-makroiqtisodiy vaziyatning barqarorligini, O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va uning daromadlarini shakllantirishning mustahkamligini ta’minlash;

-soliq qonunchiligini soddalashtirish, soliq munosabatlari sohasida normative huquqiy hujjatlardagi qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni bartaraf etish, insofli soliq to‘lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasini kuchaytirish;

-soliq solish masalalarini tartibga soladigan havolaki normalar va qonun osti hujjatlarini maksimal darajada cheklagan holda, soliq qonunchiligining barqarorligini hamda O‘zbekiston Respublikasi soliq kodeksi normalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishini ta’minlash, shu jumladan Kodeksda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar stavkalarining miqdorlarini belgilash;

-xorijiy investorlar va investisiyalar uchun qulay rejimni saqlab qolish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ishonchli huquqiy himoyalash;

-soliq nazoratining shakl va mexanizmlarini, shu jumladan soliq solish ob’ektlari hamda soliq to‘lovchilarni yanada to‘liq qamrab olish va hisobini ta’minlaydigan zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga takomillashtirish, transfer narxlarni shakllantirish bilan bog‘liq operasiyalarga soliq solish tartibini joriy etish, kabi soliq siyosatining eng muhim asosiy yo‘nalishlari belgilab olindi.

Dunyo tajribasidan ma’lumki, iqtisodiyotni soliq siyosatini takomillashtirish orqali tartibga solish instrumenti har qanday mamlakatning eng muhim yo‘nalishi hisoblangan moliyaviy siyosatning dolzarb masalalardan hisoblanadi. Chunki sof fiskal funktsiyadan tashqari soliq siyosati ijtimoiy ishlab chiqarishga, uning tarkibiy tuzilishiga va dinamikasiga, joylashishiga, ilmiy-innovasiya taraqqiyotini jadallashtirishga iqtisodiy ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy mexanizm bo‘lib ham xizmat qiladi.

Mamlakatimizda keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni izchil da’vom ettirish, milliy iqtisodiyotni rivojlangan zamonaviy bozor iqtisodiyoti darajasiga ko‘tarish, eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish tarmoqlarini vujudga keltirish, jahon iqtisodiyoti integrasiyasiga jadal kirib borishda moliyaviy siyosatning asosiy ustivor yo‘nalishi bo‘lgan soliq siyosati dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Soliq siyosatining o‘zi nima, uning asosini nima tashkil etadi, tarkibiy qismlari nimalardan iborat, bu siyosat ishlab chiqilayotgan paytda nimalarga e’tibor berish kerak,

uning zamonaviy dolzarb muammolari nimalar va ularni qanday qilib hal qilish maqsadga muvofiq?

Shu munosabat bilan ushbu masalaga aniqlik kiritishda, bizningcha, uning quyidagi jihatlariga e’tibor bermoq lozim:

-makroiqtisodiy siyosat iqtisodiy siyosatning tarkibiy bir qismi. Uning bunday ko‘rinishi iqtisodiy siyosat tur (ko‘rinish)larining ma’lum bir belgilarga iqtisodiy siyosatning qaysi darajada ketayotganligiga qarab turkumlarga ajratish natijasi hisoblanadi;

-moliyaviy siyosat ham iqtisodiy siyosatning tarkibiy bir qismi. Uning bunday ko‘rinishi iqtisodiy siyosat tur (ko‘rinishlarining boshqa bir belgi iqtisodiy siyosatni amalga oshiruvchi instrumentlarga) qarab turkumlarga ajratish natijasidir;

-ma’lum ma’noda va ba’zi bir istisnolarni hisobga olgan holda, bir vaqtning o‘zida moliyaviy siyosatni iqtisodiy siyosatning va makroiqtisodiy siyosatning ham tarkibiy qismi sifatida e’tirof etish mumkin;

-xalqaro amaliyotda makrodarajada fiskal siyosat to‘g‘risida gap ketganda, uning konkret mazmuni byudjet-soliq siyosati orqali namoyon bo‘layotgan bo‘lishiga qaramasdan, bu narsa byudjet-soliq siyosatining faqat va faqat makroiqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi sifatida e’tirof etilishiga etarli darajada asos bo‘laolmaydi. Chunki aslida, o‘shanda ham makrodarajadagi fiskal siyosatni moliyaviy siyosatdan ajratib bo‘lmaydi.

Ko‘p hollarda, haqiqatdan ham xorij amaliyotida "fiskal siyosat" deyilganda "moliyaviy siyosat" nazarda tutiladi va aksincha;

-byudjet-soliq siyosati moliyaviy siyosatdan ajralgan holda, mustaqil ravishda, iqtisodiy siyosatning ham va makroiqtisodiy siyosatning ham tarkibiga bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) kiraolmaydi;

-iqtisodiy siyosat doirasida soliq siyosati xususida gap ketayotganda moliyaviy siyosat to‘g‘risida gap ketmayapti, deb bo‘lmaydi;

-makroiqtisodiy siyosat doirasida ham soliq siyosati to‘g‘risida gap ketganda uni moliyaviy siyosatdan ajralgan holda tasavvur etish mumkin emas

-har bir mamlakatda soliq siyosatining ishlab chiqilishi va hayotga tadbiq etilishi, o‘z-o‘zidan emas, balki ob’ektiv reallikka asoslanadi. Bu erda, eng avvalo, inobatga olinishi lozim bo‘lgan narsa shu mamlakatda bozor munosabatlari unga o‘tishning qanday modeliga borib taqalishi bilan belgilanadi.

Soliq siyosati o‘rganishda zamonaviy soliq siyosatini ishlab chiqish va uni hayotga tadbiq etishning fundamental asoslariga jiddiy e’tibor qaratilishi muhim o‘rin tutadi.

Ular soliqlar,

-soliq tizimi va soliq siyosatidagi vaziyat;

-soliqqa tortish nazariyasining eng dolzarb muammosi va soliq siyosati;

-soliq tizimi, soliqqa tortish va soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining printsiplari, ularning soliq siyosati hayotiychanligiga ta’siri;

-iqtisodni tartibga solish instrumenti sifatida soliqlar va soliq siyosati;

-soliq siyosati va xorijiy investisiyalarni jalb qilish masalalari kesimida bayon qilindi.

Soliq siyosatining zamonaviy dolzarb muammolari, ularga nisbatan bildirilayotgan e’tirozlar, muammolarni hal etish va e’tirozlarni yumshatish yo‘llari ham hozirgi sharoitda soliq siyosatinig dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Xulosa

Hozirgi global sharoitda zamonaviy soliq siyosatini ishlab chiqish va uni hayotga tadbiq etishni uning fundamental asoslarini aniqlab olishsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Soliqlar muammosi bizning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar

amaliyotidagi eng murakkab muammolardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda juda keskin tanqidga uchrayotgan, juda qaynoq munozaralarga sabab bo‘layotgan, isloh qilish bo‘yicha tahlil ob’ekti va qarama-qarshi g‘oyalarga ega bo‘layotgan soliqlardan bo‘lak islohotlarning boshqa bir yo‘nalishi yo‘q. Tabiiyki, ideal (benuqson) soliq tizimini jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari, undagi yaratilgan ilmiy va ishlab chiqarish salohiyatini hisobga oluvchi muhim nazariy asos yordamidagina yaratish mumkin.

iqtisodiyotga soliq yukining darajasini kamaytirish, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimi bo‘yicha soliqlarni to‘laydigan soliq to‘lovchilar o‘rtasidagi soliq yuki darajasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish;

soliqlarni unifikasiya qilish orqali ularning sonini optimallashtirish, shuningdek, o‘xshash soliq solish bazasiga ega bo‘lgan soliqlarni birlashtirish, soliq hisobotlarini qisqartirish va soddalashtirish, operasion xarajatlarni minimallashtirish;

makroiqtisodiy vaziyatning barqarorligini, davlat byudjeti va uning daromadlarini shakllantirishning mustahkamligini ta’minlash;

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 30 dekabr "2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti to‘g‘risida"gi O‘RQ-742-sonli Qonuni. https://www.lex.uz/uz/docs/5801127
2. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 2020 yil, 01 yanvar. https://lex.uz/docs/-4674902
3. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. 2014 yil, 01 yanvar. https://lex.uz/docs/-2304138
4. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. 1997 yil 01 mart. https://lex.uz/docs/111189
5. Moliya: nazariy asoslar: O‘quv qo‘llanma / T.S.Malikov; –T.: "Iqtisod-Moliya", 2021.

Tilabov N.T. “Moliya” fanidan o‘quv uslubiy qo‘llanma

ОПТИМИЗАЦИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ТРУДА НА ПРЕДПРИЯТИИ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР РАЗВИТИЯ И ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА

Гафурова Ф.С
Ферганский политехнический институт К.э.н.
Fainagafurova2@gmail.com

Аннотация В статье рассматривается человеческий капитал предприятия как система, обеспечивающая его экономическое развитие.

Определена роль организации труда в формировании человеческого капитала предприятия. Обоснована взаимосвязь оптимизации организации труда и повышения эффективности использования человеческого капитала. Приведены некоторые аспекты, которые могут быть использованы при формировании программы развития человеческого капитала предприятия.

Ключевые слова: оптимизация, организация труда, человеческий капитал, эффективность